

## GAPDA NP<sub>1</sub> O'RNIDA INFINITIV IFODALAGAN SINTAKSEMALAR

Mamashafiyeva Farangiz Abdulloyevna

*Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada infinitiv ifodalagan sintaksemalar, komponentlarga ajratib tahlil qilingan gaplarni sintaksemalarga ajratish, gapning sintaksema modeli, gapni ham sintaksemalarga ajratib tahlil qilish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** infinitiv, nokategorial, semantik belgilar, is to respect, PrAc, PrAcMd, aktiv, was delight, to see, NP<sub>1</sub>, kvalifikativ, stativlik, tham, to criticize.

Gap tarkibida infinitiv yadro predikativ 1 (NP<sub>1</sub>) o'rnida kelganda kategorial differensial sintaktik – semantik belgilardan protsesuallikni ifodalasa, nokategorial belgilardan esa aktivlik yoki stativlikni ifodalashi mumkin. Undan tashqari yadro predikativ aloqa asosida qanday sintaksema bilan bog'lanishiga qarab o'ziga qo'shimcha semantik belgilarni ham qamrab olishi mumkin.

Shunday qilib, birinchi bobda komponentlarga ajratib tahlil qilingan gaplarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilamiz.

1. *To live is to respect.* Bu gapda yadro predikativ o'rnida kelgan element to live protsessuallikni ifodalash bilan bir qatorda aktivlik (harakatlar nomi) ifodalab kelmoqda, is to respect esa protsessuallik, aktivlik hamda modallikni ifodalarydi. Natijada NP<sub>1</sub> o'rnida kelgan protsessual aktiv sintaksema yadro predikativ aloqa asosida protsessual aktiv sintaksema yadro predikativ aloqa asosida protsessual aktiv sintaksema bilan bog'lanadi. Sintaksema modeli: PrAc. PrAcMd.

2. *To cry is useless* gapida to cry – protsessuallik aktivlikni ifodalasa, is useless kategorial belgilardan kvalifikativlik, nokategorial belgilardan negativlik kvalifikativlikni ifodalarydi. Yadro predikativ aloqa tufayli protsessual aktiv sintaksema bilan bog'langanligi tufayli is useless ifodalagan nokategorial differensial sintaktik – semantik belgilardan kvalifikativlik to cry sintaktik birlikka yuklatiladi. Umumiy hosila esa yadro predikativ o'rnida kelgan sintaktik birlik to cry – protsessual kvalifikativlik yuklatilgan aktiv sintaksemadir. Pr.QltAAc.QlfQltNg.S.m.

3. *To see her was delight.* Gapda yadro predikativ 1 o'rnida kelgan sintaktik birliklarning sintaktik sathdagi semantik maydonini toppish uchun yadro predikativ 2 o'rnida kelgan sintaktik birlik was delight elementlarining sintaktik – semantik belgilarini aniqlash maqsadga molikdir.

Yadro predikativ 2 komponenti was delight kvalifikativ, kvalifikativ sintaksemani ifodalarydi. To see – esa protsessual aktiv kvalifikativlik yuklatilgan sintaksemadir. Ushbu gap tarkibida yadro predikativ 1 elementiga tobe sintaktik birlik her esa substansial obyektlikni ifodalarydi.

Demak, *to see* elementi kvalifikativ kvalitativ sintaksemani ifodalagan elementga nisbatan kvalifikativ yuklatilgan protsessual sintaksemani ifodalasa, *her* elementiga nisbatan aktivlikni ifodalaydi. *Her* elementi ifodalagan obyektlid sintaksemani isbotlash maqsadida quyidagi transformatsiyadan foydalanish mumkin:

*To see her was delight* → *she is seen to be delight.*

Yadro predikativ aloqa asosida protsessual kvalitativlik yuklatilgan aktiv sintaksema kvalifikativ kvalitativ sintaksema bilan bog'lansa, subordinativ aloqa yordamida subtansial obyekt sintaksema bilan bog'lanadi.

Bu gapning sintaksema modeli quyidagicha ifodalanadi:

Pr AcQlt.Sbob. QlfQlt.

4. *It is easy to criticize them* gapidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishdan oldin quyidagi transformatsiyaga tushirish maqsadga mos keladi, chunki bizning asosiy tadqiqot obyektimiz infinitiv bo'lganligi tufayli hamda uning gapdagi o'rni yadro predikativ 1 komponentining tahlili sabab bo'la oladi.

*It is easy to criticize them* → *to criticize them is easy.*

Bu gapda ham *to criticize* yadro predikativ 1 komponenti o'rniga kelib, protsessuallikni ifodalaydi, yadro predikativ aloqa asosida kvalifikativ stativ sintaksema bilan bog'langanligi tufayli *is easy* ifodalagan stativlik *to criticize* sintaktik birlikka yuklatiladi. Natijada yadro predikativ 1 o'rnida kelgan element protsessual stativlik yuklatilgan aktiv sintaksemani ifodalaydi. *Them* sintaktik element esa *to criticize* komponentiga tobe bo'lib subordinativ aloqa yordamida bog'lanib, uning differensial sintaktik – semantik belgisi substansial obyekt sintaksemani ifodalaydi. Uning sintaksema modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

Pr StAs.SbOb.QlfSt.

Oxirgi gapni ham sintaksemalarga ajratib tahlil qilganimizda xuddi shunday differensial sintaktik – semantik belgilarni qamrab olganining guvohi

5. *It is possible to teach children* → *To teach children is possible.*

Yuqorida keltirilgan gaplarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda aytish mumkinki, infinitiv gapda yadro predikativ 1 o'rnida kelganida protsessual aktiv (PrAs), yadro predikativ aloqa asosida protsessual aktiv modal sintaksema bilan bog'lanishi mumkin. Protsessual kvalitativlik yuklatilgan aktiv sintaksema esa kvalifikativ negativ sintaksema bilan bog'lansa, protsessual stativlik yuklatilgan aktiv sintaksema esa kvalifikativ stativ sintaksema bilan bog'lanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Швирская С.Е., Тсирилина Ф.Й. Грамматика английского языка.-Л.
2. Зверева Е.А., Триевцева О.Н., Шукаева Н.С.
3. Иванова И.Р., Бурлакова В.В., Почепсов Г.Г.